# C++ muhitida Rekursiv funksiyalar haqida ma`lumotlar va dasturlarni ko`rib chiqish

***Alijonova Kamola***
*Namangan davlat universiteti "Kompyuter ilmlari va dasturlash texnologiyalari" 2-kurs talabasi*
*E-mail:kamolaalijonova1004@gmail.com*
*Tel:+998934964974*
*Ubaydullayeva Diloromxon Maxmudjon Qizi*
*Namangan Davlat Universiteti "Raqamli ta`lim texnologiyalari" kafedrasi o`qituvchisi*
*diloromubaydullayeva2010@gmail.com*
*+998940677715*

**Annotatsiya:** Bu maqola, funksiyalar va rekursiv funksiyalar mavzusidagi algoritmlar-ni yaratishning asosiy usullarini o'rgatadi. Ushbu maqola, dasturlash sohasidagi muhim kontseptlarni tushunish uchun funksiya va rekursiv funksiyalar- ni qanday samarali qo'llab-quvvatlashni va ulardan foydalanishni ko'rsatadi.

**Kalit so'zlar:** Funksiyalar, Rekursiya, Dasturlash, Tushuncha, Samarali, Qo'llab-quvvatlash, O'zlashtirish, Tasavvur, O'rganish.

**Annotation:** This article teaches the basic techniques for creating algorithms on the topic of functions and recursive functions. This article shows how to effectively support and use functions and recursive functions to understand important programming concepts.

**Keywords:** Functions, Recursion, Programming, Concept, Efficient, Support, Mastery, Imagination, Learning.

**Аннотация:** В этой статье рассказывается об основных методах создания алгоритмов на тему функций и рекурсивных функций. В этой статье показано, как эффективно поддерживать и использовать функции и рекурсивные функции для понимания важных концепций программирования.

**Ключевые слова:** Функции, рекурсия, программирование, концепция, эффективность, поддержка, мастерство, воображение, обучение.

## KIRISH

Dasturlash sohasida funksiya va rekursiv funksiyalar qo'llash algoritmlarini o'rganish, dasturchilarning tajribalarini rivojlantirish, kodni tizimlash va optimallashtirish jarayonlarini tushuntirishga qaratilgan integrativ maqoladir. Funksiyalar: Funksiyalar, kodni qo'shimcha tuzilganlik va o'zlashtirish uchun asosiy vositalardir. Maqolada, funksiya yaratish, uni chaqirish, argumentlarni qabul qilish, va qiymatlarni qaytarish jarayonlari ko'rsatiladi. Misollar orqali funksiyalar yordamida kodni modulyar qilishning muhimligi o'rgatiladi. Rekursiv Funksiyalar: Rekursiv funksiyalar, o'z o'zini chaqirish orqali yechim topishda ishlatiladi. Maqolada, rekursiv funksiyalar yaratish, ularni aniq

va samarali shakllantirish, va ulardan to'g'ri foydalanishning ilmiy jihatlari o'rgatiladi. Rekursivlik, maslahatlarni darhol hal qilishda va dasturlashda yechim topishda qanday yordam bera olishni ko'rsatadi.

C ++ dasturlash tilida funksiyalar o`z – o`zini chaqirish imkoniyatiga ega. Bunday funksiyalar rekursiyali (o`z – o`zini chaqiruvchi) funksiya deyiladi. Rekursiyali funksiyalarga qoyiladigan asosiy talab, qandaydir qiymatda rekursiya 0- yolg`on yoki 1-rost qiymat qabul qilishi kerak. Shundagina chaqirilgan funksiyalar qaytadi. Aks holda funksiya o`z – o`zini davomli ravishda chaqiradi va xatolik sodir bo'ladi.

Funksiya o'z – o'zini chaqirishi rekursiya deyiladi. U ikki xil – to'g'ri rekursiya va bilvosita rekursiya bo'lishi mumkin. Agarda funksiya o'zini o'zi chaqirsa bu to'g'ri rekursiya deyiladi. Agarda funksiya boshqa bir funktsiyani chaqirsa va u funksiya o'z navbatida birinchisini chaqirishi esa bilvosita rekursiya deyiladi.

Agar funksiya o‘zidan yordamchi funksiya sifatida foydalanadigan bo‘lsa, bunday funksiyalar rekursiv deyiladi.

Rekursiv funksiyalar ikki turga bo‘linadi:

a) to‘g‘ri rekursiya. Bunda dastur o‘ziga-o‘zi murojaat qiladi.

b) yondosh rekursiya. Bunda A funksiya B ga, B funksiya A ga murojaat qiladi.

Rekursiv funksiya yozish uchun avvalo: 1) rekkurent munosabat;

2) shu munosabat uchun boshlang‘ich holatlar aniqlangan bo‘lishi shart.

Rekkurent munosabat deganda qaralayotgan jarayonga doir muayyan bosqichlami avvalgi bosqichlar bilan bog‘lovchi munosabatlar tushuniladi. Masalan, N! =N-(N—1)! formulani N! uchun rekkurenti munosabat deb qarash mumkin. Boshlang‘ich holat sifatida esa 1!=1 olinadi.

Keltirilgan m a'lumotlami hisobga olsak, faktorialni hisoblash masalasi uchun rekkurent va boshlang‘ich munosabatlar quyidagicha bo`ladi:

Ko‘rinib turibdiki, N! ni hisoblash uchun (N-1)! ma'lum bo‘lishi kerak. Lekin,

(N-1)!=(N-2)!*(N-1) bo‘lgani uchun o‘z navbatida (N-2)! ni topish talab qilinadi. (N-2)! esa (N-3)!*(N-2) ga teng va hokazo. Bu yerda N! ni hisoblash algoritmi o‘zining ichiga o ‘zi “cho‘kib” borishi hodisasi ro‘y bermoqda. Cho‘kish jarayoni boshlang‘ich holat sodir bo‘lgunga qadar, ya'ni 1! gacha davom etadi. Shundan keyin, “cho‘kish” jarayoni to‘xtaydi, 1!=1 ekanligi haqida ko‘rsatma olgan kompyuter yuqoriga qarab “suzib” chiqish bosqichini boshlaydi. Ya'ni, 2!=1,

2!=1*2=2, 3!=2!*3=6 va hokazo. Bu holat to N! hisoblanmaguncha davom etaveradi.

Funksiya o'ziga o'zi to'g'ridan-to'g'ri yoki qandaydir vosita orqali murojaat qilish jarayoniga rekursiya deyiladi va bunday funksiya rekursiv funksiya deb ataladi.

Rekursiyani to'g'ri tashkil qilish shartlari:

Har qanday to'g'ri tuzilgan rekursiya asosini ikkita shart tashkil qiladi.

Rekursiya asos sharti:

Funksiyaning o'ziga o'zgartirilgan argument bilan murojaat qilish.

**Rekursiya** — Funksiya o‘ziga o‘zi to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki qandaydir vosita orqali murojaat qilish jarayoniga rekursiya deyiladi va bunday funksiya rekursiv funksiya deb ataladi. Rekursiv funksiya o‘zini — o‘zi chaqirgani uchun dasturchilar orasida quyi oldin rekursiya nimagligini tushunish kerak“ — Stephen Hawking. Rekursiya funksional dasturlashning asosiy elementlaridan hisoblanadi. Rekursiya deyarli hamma joyda ishlatiladi. Ba’zi masalalarning iterativ yechimi juda ham uzun bo‘lib ketishi mumkin. Rekursiya esa kodni bir necha barobar qisqartirib berishi mumkin. Aksariyat tuzilmalar va algoritmlarni rekursiyasiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Tree, Graph, Heap, Quick Sort, Merge Sort, … Bu ro'yhatni juda uzoq davom ettirish mumkin. Ayniqsa, murakkab tuzilmalar bo‘lgan Tree va Graphlarda rekursiya har qadamda uchraydi.[1. B 243]

Rekursiv funksiya qaysidir vaqtga kelib o'ziga murojaat qilishni to'xtatishi kerak bo'ladi. Aynan shu narsani rekursiya asos sharti ta'minlab beradi. Hikoyamizdagi misolga qaytadigan bo'lsak, Abdullajon summa() funksiyasiga bir necha marta murojaat qildi va oxirida funksiyaga keluvchi massivda faqat bitta element qolganda to'xtadi. Bu masala uchun arrayda yagona element qolishi asos shart bo'lib xizmat qiladi va shu yerga yetganda dastur to'xtashi kerakligini bilib oladi. Rekursiv funksiya tuzishda asos shartni to'g'ri qo'yish juda ham muhim hisoblanadi. Hali bunga yana to'xtalamiz.

Keyingi shartda o'zgartirilgan argument deganda, odatda masala boshidagi argumentdan kichikroq argument tushiniladi (ba'zi hollarda kattaroq bo'lishi mumkin). Misolimizda, Abdullajon har safar summa() funksiyasiga murojaat qilganda undagi massiv hajmini bittaga kamaytirib bordi. Bu narsa ham juda muhim, chunki bir xil argument bilan qayta-qayta murojaat qilinganda yoki argument notog'ri o'zgartirilganda funksiya o'zini cheksiz marta chaqirishiga to'g'ri kelib qoladi. Bu haqida ham batafsil yana gaplashamiz.

Nima uchun rekursiya kerak:

Aslini olganda, har qanday rekursiv ishlangan masalani iterativ usulda ishlash mumkin va buning aksi ham to'g'ri.Buning ustiga rekursiv yechim har doim xotiradan qo'shimcha joy talab qiladi.

Shunday ekan, nima uchun unda rekursiya kerak? Albatta, buning yetarlicha sabablari bor:

Rekursiya deyarli hamma joyda ishlatiladi. Ya'ni, lo'nda qilib aytganda undan qochib qutilishning iloji yo'q. Harakat qilib ko'rish esa qimmatga tushishi aniq )

Ba'zi holatlarda rekursiv yechim ancha soddaroq. Ayniqsa, ba'zi masalalarning iterativ yechimi juda ham uzun bo'lib ketishi mumkin. Rekursiya esa kodni bir necha barobar qisqartirib berishi mumkin.

Aksariyat tuzilmalar va algoritmlarni rekursiyasiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Tree, Graph, Heap, QuickSort, MergeSort, … Bu ro'yhatni juda uzoq davom ettirish mumkin. Ayniqsa, murakkab tuzilmalar bo'lgan Tree va Graphlarda

rekursiya har qadamda uchraydi. Dasturchilikni esa ularsiz tasavvur qilib bo'lmaydi, bu esa o'z o'rnida rekursiya qanchalik muhimligini belgilab beradi.

Rekursiya funksional dasturlashning asosiy elementlaridan hisoblanadi. Hali funksional dasturlash haqida eshitmagan bo'lsangiz u haqida ma'lumot axtarib o'qib ko'rishni maslahat beraman. Bir so'z bilan aytganda, hozirda dasturlash sohasi jadallik bilan funksional dasturlash paradigmasi tomon ketmoqda (Go va Scala yorqin namunalar).

Yana bir qiziq ma'lumot, shunday dasturlash tillari borki ularda umuman takrorlanish operatorlari yo'q va bu borada butunlay rekursiyaga tayanadi. Haskell va Erlang shular jumlasidan.

**NATIJALAR**

Albatta, bularning barchasi rekursiyani takrorlash operatorlaridan butunlay ustunligini anglatmaydi. Aslida, ko'p hollarda dasturchilar rekursiya ishlatishdan

**Masala.** f(n) funksiyaning qiymatlari f(0 )=1 , f(2n)= f{n) va

f (2n+1)=f (n)+1 ifodalar yordamida topiladi. Berilgan k natural soni uchun f(k) ni

masala shartida keltirilganligi ishni yanada osonlashtiradi.

Misol 1:Faktorialni hisoblang:




Misol 2:Fibonachi qatorini hisoblang:



Misol 3: Massiv elementlarining yig'indisini hisoblash:




**Foydalanilgan adabiyotlar ro`yhati:**


1. https://uz.wikipedia.org/wiki/Rekursiya
2. https://arxiv.uz/uz/documents/referatlar/informatika-va-at/rekursiv-funksiyalar-1
3. https://oefen.uz/uz/documents/diplom-ishlar/umumiy/c-dasturlash-tilida-ko-rsatkichlar-funksiyalar-va-rekursiv-funksiyalar-asosida-murakkab-jarayonlarni-dasturlash
4. https://www.texnoman.uz/post/rekursiya--hayotdan-misol-va-undan-unumli-foydalanish.html
5. https://azkurs.org/reja-rekursiv-funksiya-haqida-malumot.html